

## **AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNING AHAMIYATI**

**Mahmudova Maftuna Hamza qizi**

**O‘zDJTU Media va kommunikatsiya fakulteti o‘qituvchisi**

### **Annotasiya**

Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Ushbu maqolada axborot xavfsizligining jamiyatda tutgan o‘rnini xususida so‘z boradi. Mazkur maqolada mavzuga doir adabiyotlar tahlil qilinib takliflar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Axborotlashgan jamiyat, axborot xavfsizligi, diplomatik aloqa, psixologik xavfsizlik.

## **ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ИНФОРМИРОВАННОМ ОБЩЕСТВЕ**

**Махмудова Мафтуна Хамза кызы**

**Преподаватель факультета медиа и коммуникаций УзГУМЯ**

### **Аннотация**

Сегодня важность информационной безопасности, развитие науки и техники создали большие возможности для удовлетворения материальных потребностей человечества и общества. В данной статье рассматривается роль информационной безопасности в обществе. В данной статье анализируется литература по теме и вносятся предложения.

**Ключевые слова:** Информированное общество, информационная безопасность, дипломатическое общение, психологическая безопасность.

## THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL SECURITY IN AN INFORMED SOCIETY

**Mahmudova Maftuna Hamza qizi**

**Lecturer at the Faculty of Media and Communication, UzSWLU**

### **Annotation**

*Today, the importance of information security, the development of science and technology has created great opportunities to meet the material needs of mankind and society. This article discusses the role of information security in society. This article analyzes the literature on the subject and makes suggestions.*

**Keywords:** Informed society, information security, diplomatic communication, psychological security.

“**Axborot asri**” deya ta’rif berilgan XXI asrda insoniyat hayotida axborot va unga munosabat tushunchasini tubdan o‘zgardi. Zamonaviy jamiyatning turli jabhalarini, shu jumladan, faoliyati bevosita axborot olish va tarqatish bo‘lgan jurnalistikani ham kompyutersiz, internetsiz tasavvur etib bo‘lmay qoldi. Biz bugun yashayotgan davr o‘tmishda turli kelajakshunos olimlar tomonidan turlicha taxmin etilgan. Axborot jamiyati g‘oyasining asoschilari bo‘lmish **G.Maklyuen, D.Bell, E.Toffler** kabi olimlar insoniyatning yangi davrga o‘tishida axborot texnologiyalari asosiy o‘rin egallashini e’tirof etishgan. Ushbu jarayonda ogohlilik, axborotga egalik qilish yoki uni boshqarish har qanday harbiy tadbiriga qaraganda muhimroq ahamiyat kasb etadigan bo‘ldi. Bu esa jurnalistikaning tom ma’nodagi to‘rtinchı hokimiyat darajasiga ko‘tarilishini talab qilayotgan real voqelikdir. Millatlar va mintaqalararo munosabatlarda diplomatik doira vakillari qatorida jurnalist kadrlarning muhim o‘rnini borligi endilikda inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatdir<sup>3</sup>. Bugungi kunda axborot siyosatini amalga oshirishda uning terminaelement sifatida turli tasniflarini o‘rganish

lozim. Axborot manbalariga egalik qilish duyoni boshqarish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shu nuqtaiy nazardan axborotga nisbatan iqtisodiy boylik sifatida ham qarashlar mavjud. *D.Bell va T.Stoner* o‘zining yangi jamiyat kontseptsiyasida strategik resursning asosiy manbai axborot, deya baholaydi. Shuningdek axborot eng katta iqtisodiy qiymat, boylikning asosiy manbai sifatida baholaydi. Bundan tashqari, muallif “axborot” kontseptsiyasining batafsil tavsifini taqdim etadi va birinchi marta axborot iqtisodiyotini shakllantirish haqida gapiradi<sup>4</sup>. XX asrning global geosiyosiy muhitidagi aggressorning asosiy ishlab chiqarish sanoatini yakson etish, xududlarni zabit etish bilan bog‘liq mazmuni bugunga kelib o‘zgardi. Axboriy jamiyatda makonni nazorat qilishning asosiy vositasi shaxs ustidan ma’naviy–mafkuraviy nazorat qilish isbotlangan haqiqatga aylandi. Ya’ni asosiy maqsad – bir qator muayyan millat va xalqlarning dunyoqarashini boshqarish bo‘lib qoldi. Ayniqsa, xalqaro jurnalistik tahlillardagi makon uchun kurashning axborot maydonida yaqqol namoyon bo‘la boshlashi - postklassik geosiyosat to‘g‘risida ilmiy qarashlarga o‘zgarish kiritish joiz edi. Axborot niqobli davrda xuddi shu madaniy-ma’naviy, milliy-ruhiy omillarga e’tibor berish zo‘raydi<sup>5</sup>. Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasbetishi. Ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Yangi yuqori texnologiyalar jamiyat a’zolari turmushini istalgan mahsulot bilan ta’minlashga va xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart - sharoit yaratishga imkoniyat beradi. Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham ilgari ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan sur’at va ko‘lamga erishildi. “Kishilar o‘rtasida xabar yetkazishni ta’minlashda hisoblash texnikasi, axboriy aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Biroq, biz jamiyatimiz muhiti haqida xabar beruvchi shunga o‘xshash mezonlar ham, taqqoslangan “ijtimoiy indekatorlar”ga ham ega emasmiz. Bizda “turush sifati”

4 Стоунье Т. Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики. – Москва: Мысль, 1986. С.44.

5 Muitov D. Geosiyosat va jurnalistika T.:Toshkent “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2014. –B.5.

mezonlari yo‘q. Bizda odamlar bir-birlariga tobora begona bo‘lib bormayotganmikanlar, ta’lim samarasi oshayotirmi, tasviriy san’at, musiqa va adabiyot gullab- yashnayapdimi, xushmuomalalik, saxovatpeshalik va yaxshilik rivoj topyaptimi–ana shulardan guvohlik berib turuvchi muntazam ko‘rsatkich yo‘q6”-deya takidlaydi taniqli olim **Toffler**. Shu bilan birgalikda butun insoniyatni bosh qotirishga majbur qilayotgan yangi ehtiyoj – axborot xavfsizligini ta’minalash muammosi kelib chiqdi. Axborot va uning xavfsizligi masalasini tushunish uchun bir necha manbalarga murojaat qilib, ushbu tushunchalarini ma’no-mazmuniga e’tibor qaratish kerak. Ularga ko‘ra, axborot bu:

- manbalari va taqdim etilish shaklidan qat’iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar<sup>7</sup>;
- ayrim g‘arb manbalarida, o‘qish yoki tajriba asosida to‘plangan ma’lumot;
- o‘ziga xos voqealari-hodisalar va vaziyatlar to‘g‘risidagi ma’lumot, yangilik;
- ma’lumot yetkazishga qaratilgan xatti-harakat yoki ma’lumot olish degan ma’nolarni anglatadi.

Ta’rifga e’tibor qaratilsa, deyarli barchasida yangilik, yangi ma’lumot tushunchalariga ishora berilayotganligi yaqqol ko‘rinadi. Inson tabiatidan yangilikka nisbatan qiziquvchan va unga intiluvchan mavjudot. Shu ma’noda olib qaralganda, inson ongi, shuuriga ta’sir ko‘rsatishning eng samarali usuli axborot “hujumi” bo‘lib qolmoqda. Axborot “hujumlari” va unga qarshi kurash jarayonida axborot “urushlari” tushunchasi kelib chiqadi. Axborot urushlarining dastlabki bosqichida axborotlar oqimi bevosita odamlarga qaratiladi. Tarqatilayotgan axborotlar odamlar orasida turli asossiz aks ma’lumotlar, xavotirli savollar, tushunmovchiliklar, vahima va hatto tartibsizliklar keltirib chiqarishi mumkin. Muammo shundaki, insonlarning ko‘pchilik

6 Тоффлер Е. Шок будущего. М.: "ACT", 2003.–495-496-бет.

7Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 12 декабрда қабул қилинган “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. 2-модда

qismi, ayniqsa, hayotiy tajribasi yetarli bo‘limgan yoshlar tarqatilayotgan axborotlarni deyarli barchasini to‘g‘ri deb qabul qiladi. Bir qancha kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi davrda jamiyatning turli qatlamlari orasidagi asosiy muloqot mavzusi turli OAV vositalari (asosan internet nashrlari)da tarqalgan har xil axborotlar bo‘lib qolmoqda. Achinarli tomoni bunday axborotlar ko‘pincha bo‘rttirma xususiyatga ega bo‘lib, ushbu axborot bilan qiziqayotgan insonning hayot faoliyati uchun umuman ahamiyatli hisoblanmaydi. Voqelikka ta’rif beradigan bo‘lsak, texnologik taraqqiyot natijasida dunyoda internet deb atalmish ulkan axborot tizimi paydo bo‘ldi. U o‘zaro bog‘langan axborot dunyosini tubdan o‘zgartirdi, mamlakatlar va mintaqalar, xalqlar va hatto avlodlar o‘rtasidagi chegaralarni yo‘q qildi. Bugungi kunda zamonaviy-texnik inqilob jamiyat hayotining barcha sohalarini jadallik bilan qamrab olmoqda. Endilikda, mamlakat kuch-qudratini nafaqat yer resurslari, hudud balki, aholining intellektual qobiliyati, axborot resurslariga egalik qilish va ma’naviy salohiyat belgilab bermoqda. Hozirgi davrda inson ijtimoiy muhitda faoliyat olib borishi, kundalik amaliy muammolarini hal qilishida, shaxs ijtimoiylashuvida, intellektual darajasini oshirishida bevosita axborotga ehtiyoj sezadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Xalqaro mintaqashunoslik; M.M Muhammadsiddiqov. Toshkent-2017: 18-bet
2. Стоунъер Т. Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики. – Москва: Мысль, 1986.С.44.
3. Muitov D. Geosiyosat va jurnalistika T.:Toshkent “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2014. –B.5.
4. Тоффлер Е. Шок будущего. М.:”ACT”, 2003.–495-496-бет.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 12 декабрда қабул қилинган “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида”ги Конуни. 2-модда